

**TUT URUG‘INI TAYYORLASHDA UCHRAYDIGAN
KASALLIKLAR VA ZARARKUNANDA HASHAROTLAR QARSHI
KURASISH**

N.A.Narimanova –

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetinin Toshkent filiali*

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada tut urug‘ini tayyorlashda otalik onalik tut daraxtlari va ko‘chatlariga katta zarar yetkazuvchi kasalliklarni formasini aniqlash hamda urug‘lik tutzorni mo‘l va to‘yimli barg hosili beradigan, har xil zararkunanda va kasalliklarga va sovuqqa bardosh bera oladigan tut navlaridan tashkil qilish chora tadbirlar to‘g‘risida keltirilib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Zararkunanda hashoratlar, tutzorlar, navlar, kasalliklar, urug‘, payvandlash.*

***Аннотация:** В этой статье при подготовке семян шелковицы мы определим формы болезней, наносящих большой вред тутовым деревьям и саженцам, а также выберем сорта семян шелковицы, дающие обильные и питательные листья, устойчивые к различным вредителям и Упомянуты действия, которые необходимо предпринять.*

***Ключевые слова:** Вредители, насекомые, сорта, сорта, болезни, семена, прививка.*

***Annotation:** In this article, in the preparation of mulberry seeds, we will determine the form of diseases that cause great damage to mulberry trees and seedlings, as well as the selection of mulberry seed varieties that produce abundant and nutritious leaves, and can withstand various pests and diseases and cold. Actions to be taken are mentioned.*

***Key words:** Pests, insects, cultivars, varieties, diseases, seeds, grafting.*

Kirish. Respublikada pilla yetishtirish salmog‘ini, sifatini kamayishiga va

texnologik ko'rsatkichlarini pasayishiga ipak qurtining oziqasi bo'lmish tut daraxtlarini barg hosilini pasayishi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Tut daraxtining barg hosildorligini oshirish, sifatini yaxshilash va uni saqlab qolishda tut urug'ini tayyorlash, urug'li tutzorlarni barpo etish va ko'paytirish, tutzorlarni serhosil navlardan tashkil qilish, tut ko'chatlarini intensiv va yuqori agrotexnik sharoitida parvarish qilish bilan bir qatorda tut urug'ini tayyorlashda va ko'chatzorlar tashkil qilishda uchraydigan kasalliklar va zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashish choralarini amalda qo'llash katta ahamiyatga egadir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tut daraxtini ko'paytirish bilan birga tut urug'ini tayyorlashga ham katta etibor qaratilmoqda. Lekin urug'li tutzorlar tashkil qilishda yer maydonlariga sepilgan urug'larning unishida, ulardan nihol va ko'chatlar hosil bo'lguncha bir qancha kasalliklar va zararkunanda hashoratlarga ularga katta zarar yetkazib, o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun hozirgi kunda tut urug'ini tayyorlashda otalik onalik tut daraxtlari va ko'chatlariga katta zarar yetkazuvchi kasalliklarni formasini aniqlash hamda zararkunanda hashoratlarni turini to'g'ri belgilab, ularga qarshi samarali kurash choralarini qo'llash lozim bo'ladi.

Tut daraxtining navli xususiyatini saqlash maqsadida payvandlash, qalamchalash va parxishlash usuli bilan ko'paytirish bir qancha afzalliklarga ega bo'lsada, lekin O'zbekistonda hozirgi vaqtgacha va bundan keyin ham tutni urug'idan ko'paytirish asosiy usullardan bo'lib qolaveradi. Chunki, pillachilikni tobora rivojlantirish uchun yil sayin bir necha o'n millionlab tut ko'chatlarini uning urug'idangina yetishtirish mumkin. Seleksion navlarni payvandlash orqali ko'paytirishda ham payvandtag ko'chatlar urug'idan yetishtiriladi, faqat qalamchalash va parxishlash usullaridagina urug'idan ko'kartirilgan ko'chatlar talab qilinmaydi. Binobarin, tutni urug'idan ko'paytirish pillachilikning oziq bazasini kengaytirishda katta imkoniyatga egadir.

Avvallari tut urug'i jaydari Xasak tutdan tayyorlanar edi, natijada ulardan ko'paytirilgan tutlar mayda bargli, juda kam hosilli bo'lardi. Endilikda maxsus urug'chilik tutzorlar tashkil qilinib, ularga tanlab olingan erkak va urg'ochi

gullariga ega bo‘lgan navdor tutlar ekiladi. Bunday tutzorlarda serbarg va oziq sifati yaxshi bo‘lgan duragay tut urug‘lari tayyorlanadi.

1948 yildan boshlab O‘zbekistonning barcha tut ko‘chatlari va pillachilik bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklarda ana shunday maxsus urug‘chilik tutzorlarda tayyorlangan duragay tut urug‘ini ekmoqdalar.

O‘rta Osiyoda tut daraxti urug‘chiligini tashkil qilish dastlab 1937 yilda I.S.Chirkov tomonidan va so‘ngra 1847 yildan boshlab A.S.Didichenko rahbarligida amalga oshirildi. A.S.Didichenko tomonidan otalik-onalik navlari shunday tanlandiki, bunda ular chatishtirilganda duragay bo‘g‘imda onalik tutning ustunligiga erishildi. Buning natijasida geterozis (kuchli usuv) ga ega bo‘lgan nihol va ko‘chatlar yetishtirilib, ulardan tashkil qilingan tutzorlar serhosil va bargi to‘yimli bo‘ldi. Bunday ota-ona juft tutlarga Maxalliy-121 x Pioneer va ayniqsa SANIISh-15 x Pioneer duragaylari kiradi. A.S.Didichenko urug‘lik otalik-onalik daraxtlarini joylashtirish sxemalarini va bunda 75% ni urg‘ochi, 25% ni erkak tutlar xisobida olishning afzalligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga urug‘lik tutzorlarni parvarish qilish agrotexnikasini ishlab chiqdi

Urug‘lik tutzorni mo‘l va to‘yimli barg hosili beradigan, har xil zararkunanda va kasalliklarga hamada sovuqqa bardosh bera oladigan tut navlaridan tashkil qilish lozim.

1-jadval.

Tut urug‘chiligi uchun urg‘ochi-erkak juftlari.

Mintaqalar	Urg‘ochi navlar	Erkak navlar
1.O‘zbekistonning xamma viloyatlariga	SANIISh-15, Topkross-2 Murasake – vase	Pioneer SANIISh-25
2. O‘rta va Janubiy mintaqalardagi viloyatlarga.	2-№19 Topkross-3, Kurimato 1-№2	SANIISh-25

O‘rta Osiyo mahalliy tutning chatishtirishdan olingan Oq tut (M.alba L) tut turiga ta’aluqli duragay tutlar sovuqqa ancha chidamli bo‘lgani holda, chet

davlatlar (Yaponiya, Xitoy, Koreya) dan keltirilgan navlari yoki serhosil tutlarga qarashli navlarni bir-biriga chatishtirib yetishtirilgan duragaylar esa sovuqqa nisbatan chidamsiz.

Duragay tutlar mahalliy navlarga va ayniqsa jaydari Xasak tutga nisbatan tez o'sib, mo'l barg beradi, juda kam shoxlaydi va hatto shoxlamasdan surx novda hosil qiladi, bargining sathi katta bo'ladi.

Tut daraxtining zamburug' kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, tut daraxtida fuzarioz so'lish, vertesillyoz so'lish, un shudring, ildiz chirish va boshqa birqancha kasalliklarni keltirib chiqaradi. Albatta zamburug' kasalliklari ham tutchilikda eng xavfli kasalliklardan hisoblanadi.

Hammamizga ma'lumki vilt - so'lish kasalligi faqatgina g'o'za o'simligini kasallantiribgina qolmasdan juda ko'p mevali madaniy daraxtlarni ham kasallantiradi. Vilt-so'lish kasalligini qo'zg'atuvchisi zamburug' turiga qarab ikki xil bo'ladi. Birinchi vertitsillioz (*Verticillium*) va ikkinchi fuzarioz (*Fusarium*) vilt- so'lish kasalligidir.

Ipakchilik sohasi mamlakatimiz qishloq xo'jaligini asosiy sohasi bo'lganligi va uni rivojlantirish uchun ipak qurtining ozuqa ba'zasini yaxshilashni hisobga olgan holda 1969-1982 yillar mobaynida Respublikamizning tanikli olimlaridan S. Ramazanova, E. Azimjonov va A. Sheralievlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar natijasida vilt zamburug'larining 20 ga yaqin turlari aniqlangan.

Ayrim Ukrainalik olimlardan biri A. K. Gorcharenko tomonidan g'o'zaning vilt kasalligi (*Verticillium dahliae*) tut daraxtida uchrashi ham aniklangan. 1969 yilda E. Azimjonov tomonidan tut daraxtini va mevali daraxtlarda so'lish kasalligini *Verticillium nigrescens* turi aniklangan. Xullas, 1969-1982 yillar mobaynida tut daraxtlarida yetti turdagi kasallik keltirish aniklangan. Umuman olimlar tomonidan *Verticillium* va *Fusarium* avlodlarining 13 ta turi topilib, shundan 7-8 tasi kasallik qo'zgatish qobiliyatiga ega bo'lgan.

A, Sheraliev tomonidan (1984 yil) Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Qashkadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston viloyatlarining

ipakchilik hujaliklari tut ko‘chatzorlarida 500 dan ortiq nihol ko‘chat va katta daraxtlarda fuzarioz kasalligini qo‘zgatuvchi zamburug‘larning har xil turlari aniqlangan.

2-jadval

Fuzarium zamburug‘ining M.nigra ko‘chatlari o‘shish va rivojlanishiga ta’siri.

Variantlar	Poya uzunligi, sm.	Bargning miqdori, g.	Bargning kamayish, % da	Poyaning uzunligi, sm.	Bargning miqdori, g.	Bargning kamayishi, % da
Sog‘lom ko‘chatlar	180	239	100	270	465	100
Bargdan ajratilgan turlar	146	159	66,5	214	177	38
Ildizdan ajratilgan turlar	157	205	85,5	250	250	53,7
Ildiz, poya va bargdan ajratilgan turlar	161	212	88,7	280	280	60,2
O‘rtacha	154,6	192	80,2	248	235	50,6
Nazoratdan farqi	26	47	19,98	22	230	49,4

Urug‘ sepilgandan keyin unib chiqqan nihollar bir oy ichida eng ko‘p (40-50 %) kasallanib nobud bo‘lgan. Qarshi ipakchilik xujaliklarida kuchatlar yotib kolib, barglari sargayib, birinchi chin barg xosil bulishi bilan nobud bo‘lgan.

Fuzarioz kasalligi bilan kasallangan tut urugining usish energiyasi keskin pasayadi. Kasallangan barglar bilan bokilgan kurtlarga ishtaga yukoladi, kurti bokish muddati chuziladi, pillasiningt massasi 20-25 % gacha kamayadi.

3-jadval

Fuzarium turlarining M. Nigra ko‘chatlari o‘shiga va barg hosildorligiga ta’siri.

Tur	Poyaning uzunligi, sm	O‘simlikning o‘shidan orqada qolishi,%	O‘simlikdan olingan barg miqdori, g	Bargning kamayishi, %
Sog‘lom o‘simlik	170	100	112	100
F. avenaceum	150	88,2	110	98,2
F. lateritium	113	66,4	87	77,6
F. heterosporum	119	70	92	82,1
F. gibbosum	122	71,7	101	90,1
F. sambucinum	128	75,2	107	95,5
F. oxysporum	149	87,6	110	96,2
F. moniliforme	100	58,8	84	75
F. solani	97	57,0	84	75
F. javanicum	103	60,6	90	80,3
O‘rtacha	120	70,6	96	85,5

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. X. Qodirov. Tut bargini zararkunandalar va kasalliklari. Toshkent, «Uzbekiston» 1964.
2. S. Alimuxammedov. Tut parvonasi pillachilikka xavf solmoqda «Uzbekiston ovozi» 29 noyabr 1997 .
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Pillachilikning oziqa bazasini mustaxkamlash va ipak kupaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida» Uzbekiston ovozi 15 mart 1999 .
4. S.Murodov, «Umumiy entomologiya» Toshkent «Mexnat» 1986.

5. V. A. Yaxonov. Urta Osiyo kishlok xujalik usimliklari va maxsulotlarining zararkunandalari, ularga karshi kurash Toshkent, Urta va Oliy maktab nashriyoti 1968.

6. X. K. Kimsanboev, B. Irisboev, A. Yunusov. Tut parvonasi va unga karshi choralari. Toshkent, «Ukituvchi» 2003.

7. X. K. Kimsanboev, Sh.Esanboev, B.Irisbaev. Tut parvonasi Toshkent viloyatida Uzbekiston kishlok xujalik jurnali Toshkent-№4, 2001.